

## TA’LIM TIZIMIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Andijon davlat pedagogika instituti  
Alisherova Zulfiya Tolibdjanovna  
Boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi  
talabasi Akramova Zilola Ikromjon qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410790>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchi va talabalarning emotsional intellektini (EQ) rivojlantirishning ahamiyati va bu boradagi ilg‘or texnologiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida his-tuyg‘ularni boshqarish, empatiya hamda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan interfaol metodlar va psixologik yondashuvlar yoritib berilgan. Shuningdek, emotsional intellektning akademik o‘zlashtirish va shaxsiy muvaffaqiyatga ta’siri xorijiy tajribalar misolida asoslangan.

texnologiyalar, psixologik muhit, o‘z-o‘zini anglash

**Аннотация:** В данной статье анализируется значимость развития эмоционального интеллекта (EQ) учащихся и студентов в современной системе образования, а также рассматриваются передовые технологии в этой области. В ходе исследования освещаются интерактивные методы и психологические подходы, направленные на управление эмоциями, развитие эмпатии и формирование социальных навыков.

**Ключевые слова:** эмоциональный интеллект (EQ), эмпатия, социально-эмоциональное обучение (SEL), педагогические технологии, психологический климат, академическая успеваемость.

**Abstract:** This article analyzes the importance of developing the emotional intelligence (EQ) of pupils and students in the modern education system and explores advanced technologies in this field. The research highlights interactive methods and psychological approaches aimed at managing emotions, developing empathy, and building social skills. Furthermore, the impact of emotional intelligence on academic achievement and personal success is substantiated through international experiences.

**Keywords:** emotional intelligence (EQ), empathy, social-emotional learning (SEL), educational technology, psychological climate, academic achievement.

**Kirish:** Bugungi jadal o‘zgarayotgan globallashuv davrida ta’lim nafaqat bilim berish, balki shaxsni hayotga tayyorlash jarayoniga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Bu vazifa doirasida yoshlarning nafaqat intellektual salohiyatini (EQ), balki ularning ruhiy barqarorligi va emotsional intellektini (EQ) yuksaltirish strategik ahamiyatga ega. Emotsional intellekt-bu insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va boshqalar bilan samarali muloqotga kirishish qobiliyatidir. XX asr oxiriga qadar asosiy e’tibor kognitiv qobiliyatlarga (IQ) qaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda dunyo hamjamiyati “soft skills” (yumshoq ko‘nikmalar) va EQning ustuvorligini tan olmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimi faqatgina “bilimli mutaxassis” emas, balki o‘z his-tuyg‘ularini jilovlay oladigan, o‘zgalar dardiga sherik bo‘la oladigan va murakkab ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qiladigan “komil shaxs”ni tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Bugungi kunda ta’lim tizimida emotsional intellektni rivojlantirishning usullari, texnologiyalari ishlab chiqilmoqda. Negaki ta’lim tizimida emotsional

intellektni rivojlantirish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va shaxsni har tomonlama kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, yuqori EQ ga ega o‘quvchilar stressni boshqarish va diqqatni jamlashni yaxshi bilishadi, bu esa imtihonlardagi hayajonni yengishga va yuqori natijalarga erishishga yordam beradi. Ikkinchidan o‘quvchilar tengdoshlari bilan sog‘lom munosabatlar o‘rnatishni, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishni o‘rganadilar. Uchinchidan, emotsional savodxon o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan muloqotni yaxshiroq yo‘lga qo‘yadilar va kasbiy charchash holatlariga kamroq duch keladilar. To‘rtinchidan o‘quvchilar o‘z hissiyotlarini boshqara olganligi sababli dars jarayonida tartibsizliklar va intizom buzilish holatlari kamayadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Emotsional intellekt asoschisi -Daniel Goulman “O‘z-o‘zini anglash -bu o‘z his-tuyg‘ularini ular sodir bo‘layotgan paytda taniy olishdir. Bu emotsional intellektning poydevori hisoblanadi”. Goulmanning ushbu fikri ta’lim tizimida o‘quvchining o‘z ichki dunyosini tushunishi nafaqat psixologik xotirjamlik ,balki aqliy faoliyatning samarali ishlashi uchun ham bazaviy shart ekanligini isbotlaydi. O‘z hissiyotini anglamagan o‘quvchi uni boshqara olmaydi, bu esa dars jarayonida diqqatning tarqalishiga olib keladi[5;43]. Hovard Gardner(ko‘p qirrali intellect nazariyasi muallifi)ning fikricha “shaxslararo intellekt - bu boshqa odamlarning kayfiyati, niyatlari va motivatsiyasini farqlash hamda ularga mos ravishda munosabat bildirish qobiliyatidir”. Haqiqatdan ham ta’limda faqat mantiqiy yoki lingvistik qobiliyatlarni baholash yetarli emas. O‘quvching jamoada ishlash va boshqalarni tushuninish qobiliyati uning kelajakdagi ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilab beradi bu esa maktablarda kollektiv loyihalar va guruhlarda ishlash texnologiyasini joroy etish zarurligini ko‘rsatadi[6;239].

Lev Vigotiskiy “Bolaning intellektual rivojlanishi uning emotsional hayotidan ajralgan holda sodir bo‘lmaydi. Fikr va emotsiya o‘zaro bog‘liq tizimdir.deya fikr bildirgan [7;50]. Mening fikrimcha, agar dars jarayonida o‘quvchi ijobiy emotsiyani his qilmasa ,uning kognitiv (bilish) jarayonlari to‘liq quvvat bilan ishlamaydi. Ya’ni emotsional intellect ta’lim olishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt ta’lim oluvchining nafaqat ruhiy barqarorligini ,balki uning kognitiv samaradorligini ham belgilovchi asosiy omildir. RULER va SEL kabi texnologiyalarni o‘zbek maktablari va oliy o‘quv yurtlari dasturiga moslashtirish, o‘quvchilar o‘rtasidagi nizolarni kamaytirish va o‘quv motivatsiyalarini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda ta’lim tizimini faqat IQ(aqliy salohiyat)ga emas,balki “Yurak va aql “ muvozanatiga (EQ) asoslangan holda isloh qilish raqobatbardosh va komil shaxsni tarbiyalashning eng to‘g‘ri yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

- 1.Brackett,M.A.(2019).Permission to Feel.(24-35-b)
- 2.Greenberg,M.t.,&Kusche,C.A.(1993). (62-72-b)
3. G‘oziyev E.G’.Muomala psixologiyasi.-Toshkent:Universitet,2001.(45-52-b)
- 4.Xodjayev B.X.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.-Toshkent: Sano-standart,2017.(215-217-b)
- 5.Goleman,D.(1995).Emotional intelligence.(43-b)
- 6.Gardner,H.(1983).Frames of Mind:The Theory of Multiple Intelligences.(239-b).
- 7.Алишерова Зульфия Толибджановна. (2025). ВАЖНОСТЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ ПОДРОСТКОВ. *Лучший журнал инноваций в науке, исследованиях и разработках*, 4(6), 148–150. Получено из <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/3411>
8. Yoqubaliyeva Dilafro‘z Payzidin qizi Sun‘iy intellekt – bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari ta’limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida. (2025). *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, 3(6). <https://doi.org/10.5281/zenodo.15779871>

9. Yoqubaliyeva, D. P. (2025). Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini "tarbiya" fanini o'qitishga tayyorlashning samarali tamoyillari va omillari. *Экономика и социум*, (2-2 (129)), 238-247.